


Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi ilmiy-tadqiqotlar uchun tanlov e'lon qilindi!



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi ilmiy tadqiqotlarga **150 mln. so'mgacha** grantlar ajratish bo'yicha tanlov e'lon qiladi!

Tanlov shartlaridan o'tgan loyihalar **2021 yil may oyidan 2022 yil may oyiga** qadar **Jamg'arma hisobidan moliyalashtiriladi**.

Tanlov Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etish, moliyalashtirish va amalga oshirish to'g'risidagi NIZOM talablari asosida o'tkaziladi (ilova).

Tanlovga quyidagi hujjatlar qabul qilinadi (ilova).

Tanlovga xujjatlar **2021 yil 1 aprelga** qadar qabul qilinadi.

Tashkiliy qo'mita telefon raqami: 71-233-68-95

Loyiha topshirish uchun talablar va na'munalar: [**Yuklab olish**](#)